

Kreativ PEDAGOG



KREATIV PEDAGOG LOYIHASI

**O’RTA MAXSUS TA’LIM MUASSASALARI
O’QITUVCHILARI UCHUN KASBIY FAOLIYATIDA
FOYDALANISH UCHUN USLUBIY, METODIK
QO’LLANMA**

**USHBU QO’LLANMADA FOYDALI
MASLAHATLAR VA KREATIV
METODLAR JOY OLGAN**

KREATIV PEDAGOGLAR UCHUN TUZIB CHIQILGAN ENG SARA
MASLAHATLAR VA QO'SHIMCHA METODLAR TO'PLAMI – T.: 2022 –
25.B

TELEGRAMDAN @KREPEDUZ DEB IZLATING

*O'qituvchi abadiyatga ta'sir ko'rsata oladi, uning
ta'siri qayerda tugashini hech qachon bilib bo'lmaydi.*

Genri Adams

KIRISH

O'zbekiston hozirda katta o'zgarishlar davrida turibdi. To'g'ri, ta'lim tizimimiz yuksak rivojlangan davlatlar ta'lim tizimidan ancha orqada. Hech qaysi davlat ta'lim tizimi qisqa vaqtida rivojlanib qolmaydi. Xo'sh, O'zbekistonda yaqin 20 yilda ta'lim tizimi qay darajada o'zgaradi. Ta'lim sohasida Pedagoglar kasbiy malakasiga katta e'tibor beriladi. Oyliklar miqdorini belgilashda eng asosiy omil bu kasbiy mahorat bo'ladi. Sizning mакtab tizimida natijangizga qarab kasbiy mahoratingiz aniqlanadi. Attestatsiya imtihonlari, fan olimpiadalari, qiziqarli dars o'tish uslublari, Networking va bir qancha faktorlar. Siz mакtabda, xususiy ta'lim muassasasida, O'quv markazlarda ishlappingiz qat'iy nazar yuqoridagi mahoratga ega bo'lisingiz shart.

Onlayn ta'lim ahamiyati oshadi. Istalgan vaqtida, istalgan joyda ta'lim olish tushunchasi Bizning ta'lim tizimimiz hayotiga kirib kelganiga ko'p bo'lindi. Ta'lim tizimimiz deganda faqat mакtab yoki oliy ta'lim emas, balki har qanday o'qish, o'rganish Kurslari onlayn (masofaviy) formatni yo'lga qo'yishdi. IT kurslari, kompyuter savodxonligi, pazandalik kurslari, biznes kurslari, kasbiy yuksalishga doir barcha kurslar, xullas bularning barchasi endi onlayn formatda o'zaro raqobatlashadi. Yaqin yillar ichida onlayn ta'lim akademiyalari, onlayn mакtablar, o'quv markazlari ham ko'payib qoladi. Aziz ustozlar sizlar bu tandensiyalarga hozirdan tayyor bo'lisingiz kerak. Siz hozirda bor e'tiborni o'zingizni rivojlantirishga, foydali ilm va ko'nikmalarni egallashga harakat qilishingiz kerak. "Daraxt ekish uchun eng qulay fursat - bundan 20 yil oldin edi va Hozir" - Yapon xalq maqoli.

MUNDARIJA

Zamonaviy va Kreativ pedagog bo'lishning 3 siri
O'quvchilaringizni sekin o'rganuvchi bo'lishiga sabablar
Buyuk ustozlarning 6 xususiyati
Lider ustoz bo'lishning 5 siri
Yosh o'qituvchilar uchun oson yondashuv yo'li
Zamonaviy pedagog sifatlari
"Piramida" metodi
O'qituvchi uchun "7 sifat" metodi
"Shakllarni yodda saqla" metodikasi
Kreativ pedagogning oltin xususiyatlari
"To'g'ri tenglikni tanla" metodikasi
O'quvchini qanday ruhlantirish kerak?
O'quvchiga ijobiy ta'sir etish yo'llari
Qanday qilib yosh o'quvchilarda motivatsiyani oshirish mumkin?
Muvaffaqiyatli o'qituvchi bo'lish uchun 5 qadam
Darsda o'qituvchilar yo'l qo'yadigan 5 ta xato
Aktiv dars muhitini hosil qilishning 5 ta usuli
Lider mакtab direktoriga xos 5 xususiyat
Darsni interaktiv va qiziqarli tarzda o'tkazish uchun 5 ta layfhack

Zamonaviy va Kreativ pedagog bo'lishning 3 siri

1.Moslashuvchan bo'ling

Sinf - bu turli-tuman xarakterga ega o'quvchilardan tashkil topgan dinamik muhitdir. Hech biri bir-biriga o'xshamagan, turlicha bilimga, o'zlashtirishga va xulq-atvorga ega hisoblanadi. Shuning uchun haqiqiy pedagog bo'lmoqchi bo'lsangiz Siz sinfga moslapping, ularni o'zingizga, xarakteringizga moslashtirishga harakat qilmang. Har bir o'quvchini e'tibordan chetda qoldirmang, darsni tushuntirayotganingizda ko'z kontaktini barcha o'quvchiga birdek qarating, baholash jarayonida xolis bo'ling va raqobat muhitini yarating.

2.Aslo qila ko'rmaning!

Endi esa dars jarayonida aslo qilish mumkin bo'lмаган holatlarga to'xtalamiz: "Maqtanish emasku, men sizlardek paytim unday qillardim", "Bir kuni u yerga borganimda bunday bo'ldi, keyin men u ishni qildim, sizlar ham shunday bo'lishingiz kerak" va hokazo. Yuqoridagi kabi o'zingizni qo'shib hikoya aytmang. Bu sinfda noqulay muhitni shakllantiradi. O'quvchilarda sizga nisbatan hurmatsizlikni keltirib chiqaradi.

3.Faktlarni hayotga moslang.

Keling endi sizga hayotiy bir fakti keltiraman - "maktab darsliklarining 80% qismi hayotda umuman kerak bo'lmaydi". Siz bu faktga qo'shilasizmi? Xo'sh, nima qilish kerak? Siz dars jarayonida mavzuni Real hayotga moslashtiring. Fizika, kimyo qoidalarining hayotda qanday ishlashi, bizga qanday foydali jihatlari borligiga to'xtaling, Ona tili darsida jamiyatdagi yozuv masalasi, turli shevalar va o'zbek tilining ahamiyatiga to'xtaling, tarix darsida tarixiy kino qo'yib bering, zoologiya darsi uchun sinf jonli burchagi shakllantirib o'quvchilarda jonivor va o'simliklarga nisbatan muhabbatni shakllantiring va hokazo.

O‘quvchilaringizni sekin o‘rganuvchi bo‘lishiga sabablar

Agarda siz faol o‘qituvchi bo‘lmasangiz, u holda siz yangi bilimlarni o‘zlashtirishga juda ko‘p vaqt sarflayabsiz. Bu esa samaradorlik koeffitsientini tushurib yuboradi. Keling, nima uchun sekin o‘rganuvchi bo‘lishning 4 ta sababini ko‘rib chiqamiz.

1.Fokus yetishmasligi o‘rganishni sekinlashtiradi.

Diqqatni bir yerga jamlash - o‘zlashtirish uchun kalit hisoblanadi. Agar siz o‘rganmoqchi bo‘lgan narsangizga to‘liq e’tibor bermasangiz, bu o‘rganishni qiyinlashtiradi va sekinlashtiradi.

2.Munosabatlarimiz o’sishimizga ta’sir o’tkazadi.

Bir paytlar Genri Ford aytganidek, "Bajara olaman deb o‘ylaysanmi yoki bajara olmayman deb o‘ylaysanmi, sen ikkisida ham haqsan" Ushbu gapdan ko‘rinib turibdiki, barcha chegaralarni o‘zimiz yaratamiz. Aslida chegaralar mavjud emas. Shuning uchun, yangi metod yoki ko‘nikmani o‘rganish menga emas degan gap, aslida yolg‘on.

3.Hammasi ham "silliq" kechmaydi.

Biz har doim yangi ko‘nikmalarni egallahni yoki yangi dars o’tish metodini o‘rganishni istasak, biz o‘quv jarayoni muammosiz o’tishini taxmin qilamiz. Ammo haqiqat shundan iboratki, o‘rganish ba’zan qiyinchiliklardan ham iborat bo‘ladi. Shuning uchun har bir holatga moslashuvchan bo‘ling.

4.Biz o‘rganib qolgan ko‘nikmalar o‘rganish tezligiga ta’sir qiladi.

Ushbu ko‘nikmalar asosan bir xil muhitda doimiy qolsak shakillanib qoladi ya’ni siz har kungi bir xil vazifalardan zerikish va ishtiyoqsizlik sezib qolasiz. Keyinchalik yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirayotganingizda, ta’lim jarayoni haqidagi ixtiyoriy taxminingiz eski maktab darsini yodingizga solishi mumkin. Shuni

inobatga olgan holda dastlabki taassurotlaringizni o'zgartirib, yangi ko'nikmalarni o'zlashtirishga kirishing.

Ko'pincha, odamlar tabiatan tez yoki sekin o'rganuvchi bo'lishmaydi. Gap ularning o'rganish qobiliyatiga bog'liq emas, balki ular ushbu imkoniyatlardan qanchalik samarali yoki samarasiz foydalanayotganliklariga bog'liq. Demak, qanday qilib sekin o'rganuvchidan tezkor o'rganuvchiga aylanish haqida bilib oldingiz. Endi esa uni amalyotda qo'llab korishingiz qoldi.)

Buyuk ustozlarning 6 xususiyati

- 1.Buyuk o'qituvchilar barcha talabalarga katta talablar qo'yadilar. O'quvchilardagi tuzatilishi mumkin bo'lgan muammolardan hech qachon yuz o'girmaydilar
- 2.Buyuk o'qituvchilar aniq, yozma ravishda maqsadlariga ega bo'ladi. Ular dars rejalariga ega bo'lib, o'quvchilarga nimani o'rganishi, qanday topshiriqlar berishlari va baholash siyosati to'g'risida aniq tasavvur hosil qilishadi.
- 3.Buyuk o'qituvchilar doimo dars berishga tayyor. Ular darslarni aniq va tizimli ravishda taqdim etadilar.
- 4.Buyuk o'qituvchilar talabalarni qiziqtiradilar va ularni muammolarni turli yo'llar bilan ko'rib chiqishga undaydilar.
- 5.Buyuk o'qituvchilar o'z o'quvchilari bilan mustahkam munosabatlarni o'rnatadilar va ularga yaqin insoni kabi g'amxo'rlik qilishlarini ko'rsatadilar.
- 6.Buyuk o'qituvchilar o'z mavzularining ustalari. Ular o'qitayotgan fanlari bo'yicha tajribalarini namoyish etadilar va o'z sohalarida yangi bilimlarni olishga davom etadilar.

Lider ustoz bo'lishning 5 siri

1- qadam. Namuna bo'ling

O‘quvchilaringiz sizni “super qahramon” sifatida ko‘rishlari juda muhim. Esingizda bo‘lsin, ular doim sizga hayrat bilan boqadi va shuning uchun sizga taqlid qilishga harakat qiladilar. O‘quvchilar sizni ishonchli odam sifatida ko‘rishlari va siz ko‘rsatgan yo‘ldan borishlari sinalgan haqiqatdir. Har qanday yoshda ham shogirdlar o‘zлari ishona oladigan, ularni qoyil qoldiradigan va ergashtira oladigan insonga muhtoj.

2- qadam. Shafqatli bo'ling

O‘z o‘quvchilari bilan mustahkam munosabatda bo‘lgan va g‘amxo‘rlik ko‘rsata olgan o‘qituvchi yaxshi o‘qituvchidir. O‘quvchilar muomalali, g‘ayratli va bag‘rikeng ustoz bilan bemalol muloqotga kirisha oladilar. Darsdan so‘ng qo‘srimcha mashg‘ulot yoki maktab tadbirlarida ishtirok etish bilan o‘zaro yaqinlikni his ettirish mumkin. Shu tariqa o‘quvchilarda maktabga sadoqat ham shakllantiriladi.

3-qadam. Ba'zi asosiy qoidalarni o'rgating

O‘quvchilar rioya qiladigan 3–5 qoidaga ega bo‘ling. Ushbu qoidalari buzilgan taqdirda chora ko‘rilishini ular bilishlari lozim. Sinf uchun asosiy qoidalarni birgalikda muhokama qilish va o‘quvchilar fikrini yozdirish yaxshi natija beradi. Masalan, siz gapirayotganda jim bo‘lish, barchani hurmat qilish va hokazo qoidalari.

4-qadam. Individuallik va tashabbuskorlik

Ta’limning eng katta maqsadi “Qanday qilib biz shaxslarni o‘qitamiz?” degan savolga javob topish, axborot va texnologiyalar davri tamoyillariga amal qilishdir. Darsning to‘g‘ri didaktik va texnik jihozlanishi maqsadlarga erishishning asosiy shartidir. Ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, ishlanmalar — bular

darsning masalliqlari. Darslikdan tashqari manbalardan olinib, taqdim etiladigan ma'lumotlarni izlashdan, topishdan naf katta.

5-qadam. O'zingizni qadrlang

Bugun o'qituvchi o'z shaxsiyatini va xavfsizligini qadrlashi muhim. Jamiyatda obro'li ustozlarga obro'li shogirdlarni yetishtira oladilar. Ustozning kayfiyati, muomalasi, yurish-turishi, o'quvchilarining bilim olishga ishtiyoqlarini qo'llab-quvvatlashi rag'batlantirishning turli usullaridan foydalanish ko'p hollarda dars sifati va samarasiga bevosita ta'sir qiluvchi omil sanaladi. Darsga tayyorgarlik jarayonida arzimasdek ko'rindigan shunday unsurlar ham goho katta ahamiyat kasb etishi tajribadan ma'lum. Yuqoridagi sifatlarga qanday erishsam bo'ladi deysizmi? Bunda sizga "Kreativ pedagog" onlayn kursi yordam beradi. Bizga qo'shiling va kreativ fikrovchi insonlar qatorida rivojlaning!

Yosh o'qituvchilar uchun oson yondashuv yo'li

Bugunning zamонавиј о'qитувчиси о'кувчиларга самарали та'лим беришда, аvalu, ularning yoshini hisobga olishi, eng yuqori darajada ta'lim berish uchun esa quyidagi 6 ta foydali maslahatga amal qilishi lozim:

1. O'quvchilar bilan do'stona aloqa o'rnating. O'quvchilar siz ular uchun alohida g'amxo'rlik qilayotganingizni bilishsin. Ular bilan har tomonlama aloqani mustahkamlang. Birortasi nazaringizdan chetda qolmasin. Har birining fikr-mulohazalarini eshitishga va qadrlashga, o'z o'rnida ularga ijobiy baho berishga odatlaning.
2. Bilim berishda ijobiy muhit yarating. Unutmang, o'quvchilar doimo ijobiy muhitda bilim olishga oshiqishadi. Shuning uchun ularga tengdoshlari bilan ishlay oladigan muhit yaratishga harakat qiling. Har bir o'quvchining javobini tinglab, bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiring.
3. Darsda turli yondashuvlardan foydalaning. Tadqiqotchilarining ma'lumotlariga ko'ra, yoshi kichik o'quvchilar bir vaqtda atigi 10—

15 daqiqagina diqqatlarini jamlay olishar ekan. Shuning uchun bitta mashg‘ulotni 15 daqiqadan oshirib yubormang. Darsslarning o‘yin, musobaqa tarzida noan’anaviyligini oshiring. Yetakchi o‘zingiz bo‘ling. Shunda sinf boshqaruvida muammolarga duch kelmaysiz.

4. O‘quvchilarni ko‘proq harakat qildiring. Kichik yoshdag‘i o‘quvchilarda energiya ko‘p bo‘ladi. Buni bosib turishdan ko‘ra, undan foydalanishning pozitiv yo‘llarini toping. Darsda qiziqarli va interfaol usullardan foydalanib o‘quvchilarning ko‘proq jiemoniy va aqliy qobiliyatini oshiring.

5. Guruhlarga bo‘lib qo‘ying. Guruhlarga bo‘lishning afzalligi shundaki, bunda bilmasvoylar bilimdonlardan ko‘proq bilim olishga intilishadi. Tortinchoqlikka barham beriladi. Hamjihatlik kuchayadi va har bir bola ortda qolmaslikka intiladi.

6. Tartib-intizomni saqlashda qo‘l ishorasidan foydalaning. Sinfni boshqarish yosh o‘quvchilar bilan ishlaydigan o‘qituvchilar uchun asosiy muammolardan biri sanaladi. Siz izchil bo‘lishingiz kerak. Muammolarni hal qilish uchun darsingizni bo‘lishga odatlanmang. Salbiy xulq-atvorlarni bartaraf etishning eng yaxshi usullaridan biri qo‘l bilan ishora qilishdir. O‘quvchilaringizga dars avvalida har bir qo‘l ishorasi nimani anglatishini bildirib qo‘ysangiz, bas.

Zamonaviy pedagog sifatlari

Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak? Biz g‘aroyib davrda yashayapmiz: atrofimizdagi olam juda tez sur’atlarda, tanib bo‘lmas darajada o‘zgaryapti. Shuning uchun o‘sib kelayotgan avlod bilan ishlaydigan o‘qituvchi quyidagilarga tayyor bo‘lishi kerak:

O‘zgarish. Bu eng qiyini, biroq to‘laqonli shaxs sifatida mavjud bo‘lish uchun zarur bo‘lgan shart. Shuning uchun o‘zgarishdan va yangiliklarga ochilishdan qo‘rmasligimiz bu bizning ustuvor vazifamizdir.

O‘z xatolarini tan olish. Hech narsa qilmagan kishigina xato qilmaydi. O‘qituvchi esa bundaylar toifasiga kirmasligi aniq.

Shunday ekan, kerakli vaqtida o'z xatolarimizni tan olishimiz bizga ziyon keltirmaydi albatta.

Rivojlanish. Agar jahon sur'ati bir necha avlodlar davomida o'zgarmagan bo'lsa, hozirda u shu qadar tez sur'atlarda rivojlanyaptiki, buni hech biror so'z bilan ifodalash qiyin. Shunchaki unga yetib olish uchun "oyoqni qo'lga olib yugurish kerak" deya olamiz) Eng asosiysi, o'qituvchi zamonaviy o'quvchilar nima bilan yashayotganini ham tushunishi kerak.

Lim olish piramidasi haqida eshitganmisiz?

1960 yillar boshida AQShning Milliy o'quv laboratoriyasi (National Training Laboratory) “ta’lim olish piramidasi” (“learning pyramid”) tushunchasini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra:

Agar o'qituvchi faqat ma'ruza usulidan foydalansa, talaba faqat 5% ma'lumotni xotirasida saqlab qoladi. Agar talaba mustaqil tarzda kitob o'qisa, u 10% materialni eslab qoladi. Agar darsda audiovizual usullardan foydalanilsa, bu holda talabaning o'zlashtirish darajasi 20% bo'ladi. Agar o'qituvchi ma'lumotni ko'rsatib bersa (ko'rgazma, namoyishlar orqali o'qitish usuli), unda xotirada saqlab qolish darjasni 30% ga ko'tariladi. Eng samarali FAOL bilim quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

Agar darsda talabalar kichik guruhlarga bo'linib, muhokamalar, baxs-munozaralarda ishtirok etsa, ularda notiqlik san'ati, tanqidiy fikrlash, to'g'ri savollar tuzish mahorati rivojlanib, ular materialning 50% ni o'zlashtirib, xotirada saqlab qolishlari mumkin.

Dars jarayonlarini amaliyot bilan bog'lash, har qanday olingan yangi ma'lumotlarni amaliyotda sinash o'rganuvchi uchun katta samara beradi. Bu holda 75% bilim xotirada saqlanib qoladi va so'nggi bosqich – o'z bilimlarini boshqalarga yetkazish, o'rgatish, o'qitish orqali 90% samaraga erishish mumkin. Bilim olishning eng afzal usuli – bilim berish degan naql bor. Ushbu ta’lim olish

piramidasidan ham ustozlar, ham talabalar to‘g‘ri xulosa chiqarsa, ta’lim sifati yanada yaxshilanadi.

O‘qituvchi uchun "7 sifat" metodi

- 1.Maktabga xursandchilik bilan kirib boring, maktabdan yoqimli charchoq bilan chiqib keting.
- 2.Tabbasum qilishni unutmang.
- 3.Yodingizda tuting: e’tiborsiz shifokor bemorning badaniga shikast yetkazishi mumkin, e’tibosiz o‘qituvchi esa - bolaning qalbiga.
- 4.Darsga kirishdan oldin hozir nima uchun bu yerda ekanligingizni va nima qilishingizni aniq biling.
- 5.Eng oliy pedagogik muvaffaqiyat — o‘quvchilarining tabbasumi.
- 6.Agar oddiy faktni katta kashfiyat kabi taqdim eta olsangiz va o‘quvchilariningizni hayratlantira olsangiz, asosiy vazifangiz bajarildi deb hisoblappingiz mumkin.
- 7.Agar mashg‘ulotingizga mehmonlar tashrif buyurgan bo‘lsa, o‘zingizni mamlakatning eng qobiliyatli pedagogi va eng zo‘r aktrisasi (aktyori) kabi tuting.

"Shakllarni yodda saqla" metodikasi

Ushbu metodikadan maqsad bolani ko‘rvu (vizual) xotirasini rivojlantirish va turli rasmlar orqali bola xotirasini mustahkamlash. Metodika materiali sifatida turli geometrik shakllar chizilgan rasmdan foydalaniladi. Ushbu metodika uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi.

Ko‘rsatma berish: "Quyidagi geometrik shakllarga diqqat bilan qarang (20-30 soniya mobaynida) va ularni yodda saqlab qolishga harakat qiling" Bu metod darsda o‘quvchilar fokusini bir joyga jamlashga yordam beradi.

Kreativ pedagogning oltin xususiyatlari

1.Yaxshi kommunikator bo'ling

Muloqotda ular yetarli ritmdan foydalanishlari kerak. Ovoz ohangiga, maromiga va so'z boyligi jihatidan jamoatchilikka moslashtirilgan holda ideal nutqni o'tkazish, e'tiborga olish kerak bo'lgan eng maqbul omillardandir. Bunga o'quvchilar diqqatini doimiy ravishda saqlashlari kerak bo'lgan darslarni misol qilib keltirish mumkin. Yaxshi muloqotdan foydalanish imkoniyati talabaning diqqatini turli xil urish va ovoz balandligini pasaytirish orqali rag'batlantiradi.

2.Siz beradigan narsalar ustidan nazoratni saqlang

Talabalar o'qituvchi o'zi aytayotgan mavzuning yuz foizini nazorat qilmasligini anglashi, talabalarning aloqani uzib qo'yishi va vaziyatda o'zlariga ishonchsizligini anglatadi.

3.O'quvchilarda muvaffaqiyatni rag'batlantirish

Muvaffaqiyatli vaziyatlarni ko'rsatish talabani oldinga siljishga undaydi. Bunga ba'zi talabalar tomonidan Jismoniy tarbiya mavzusiga nisbatan ishonchsizlik keltirilgan. Agar ular muvaffaqiyatli vaziyatlarga duch kelmagan bo'lsalar, ular unga ishonmaydilar, evolyutsiyani ko'rмаганлар va shuning uchun ular qiziqish bildirmaydilar.

O'quvchini qanday ruhlantirish kerak?

1. O'quvchining qilayotgan mehnati va erishgan natijalarini e'tirof etish. Bu oddiy maqtov so'z yoki qandaydir mukofot bo'lishi mumkin. Lekin, maqtov eshitish yoki mukofot olish o'quvchining maqsadiga aylanib qolmasligi lozim.

2.O'qishning ahamiyati va o'quvchilarning asl maqsadlarini eslatib turish, ilm olish majburiyat emas, shaxsiy tanlov ekanligini uqtirish.

3. Bir xillikdan qochish. Vaqtı-vaqtı bilan topshiriqlarning shaklini ozgartirib turish mumkin yoki hatto ba'zida darsga boshqa o'qituvchini, mashhur shaxslarni, ota-onalarni taklif qilib turishi ham mumkin.

4. Real hayot bilan bog'lash. Darsdagi misollar, topshiriqlar o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lgan insonlar, hodisalar atrofida jamlansa, o'quvchilarga qiziqroq bo'lishi mumkin.

5. O'qituvchining o'zi ishtiyoqi baland bo'lishi. Ruhiy horg'in inson boshqalarda motivatsiya uyg'otishi qiyin.

O'quvchiga ijobiy ta'sir etish yo'llari

- O'quvchining bilimga qiziqishini o'ylab, misol uchun, qiziquvchanlik, taajjublanish, shubhalanish, sergak turish, ajablantirish orqali ularga yordam bering;
- Shunday maqsadlar va topshiriqlar beringki, ular o'quvchi uchun arzigulik va qiziqarli bo'lib tuyulsin;
- O'quvchini, kerak bo'lsa, majburlashga ham tortinmang. Masalan, muhlat berib, sifat va miqdor talabini qo'ying. Talab qilish orqali rag'batlantiring;
- Nazariy va amaliy darslarni kengroq mehnat doirasiga qo'ying;
- O'quvchining aynan ilk bor qadamlariga dalda bering;
- O'quvchiga iloji boricha ish-harakati uchun imkoniyatlarini kengaytiring;
- O'quvchining harakatlanishiga to'sqinlik qilmang va o'ta og'ir o'qitish bilan qiynamang;
- O'quv maqsadlarini aniq ifodalab bering. O'quvchilar o'zi ham tekshira olishi mumkin bo'lsin.

Qanday qilib yosh o'quvchilarda motivatsiyani oshirish mumkin?

- O'quvchiga kichik va katta maqsadlarni o'z oldiga qo'yishni o'rgating. Ustoz sifatida Siz bu maqsadlar haqiqatda mehnat natijasida erishishini tushuntiring.
- O'quvchingiz muvaffaqiyatini birgalikda nishonlang va doim mehnatini qadrlang va maqtang.
- O'quvchingizni kelajakda bajarmoqchi bo'lgan ishiga ishonch hissini orttiring. Shubha va hadiklardan voz keching.
- O'quvchilaringiz qiziqishlari haqida ko'proq biling. Bu sizni g'amxo'rlik qilayotganingizni ko'rsatadi.
- O'quvchingiz uchun doim Siz ijobiy va to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi bo'lib qoling. O'quvchingiz sizda qo'rqinch va shubhani ko'rmasin, shunda o'ziga nisbatan ishonchi ortadi.

Muvaffaqiyatli o'qituvchi bo'lish uchun 5 qadam

1. Namuna bo'ling

O'quvchilaringiz sizni "super qahramon" sifatida ko'rishlari juda muhim. Esingizda bo'lsin, ular doim sizga hayrat bilan boqadi va shuning uchun sizga taqlid qilishga harakat qiladilar. Agar qo'pol bo'lsangiz, ularning xatti-harakatlarida ham qo'pollik namoyon bo'ladi. O'quvchilar sizni ishonchli odam sifatida ko'rishlari va siz ko'rsatgan yo'ldan borishlari sinalgan haqiqatdir. Har qanday yoshda ham shogirdlar o'zлari ishona oladigan, ularni qoyil qoldiradigan va ergashtira oladigan insonga muhtoj.

2. Shafqatli bo'ling

O‘z o‘quvchilari bilan mustahkam munosabatda bo‘lgan va g‘amxo‘rlik ko‘rsata olgan o‘qituvchi yaxshi o‘qituvchidir. O‘quvchilar muomalali, g‘ayratli va bag‘rikeng ustozi bilan bemalol muloqotga kirisha oladilar. Darsdan so‘ng qo‘sishimcha mashg‘ulot yoki maktab tadbirlarida ishtirok etish bilan o‘zaro yaqinlikni his ettirish mumkin. Shu tariqa o‘quvchilarda maktabga sadoqat ham shakllantiriladi.

3. Ba'zi asosiy qoidalar o'rnatning

O‘quvchilar rioya qiladigan 3–5 qoidaga ega bo‘ling. Ushbu qoidalar buzilgan taqdirda chora ko‘rilishini ular bilishlari lozim. Sinf uchun asosiy qoidalarni birgalikda muhokama qilish va o‘quvchilar fikrini yozdirish yaxshi natija beradi. Masalan, siz gapirayotganda jim bo‘lish, barchani hurmat qilish va hokazo qoidalar...

4. Individuallik va tashabbuskorlik

Ta’limning eng katta maqsadi “Qanday qilib biz shaxslarni o‘qitamiz?” degan savolga javob topish, axborot va texnologiyalar davri tamoyillariga amal qilishdir. Ta’lim tizimi talablariga muvofiq, o‘quv dasturida belgilangan mavzuni agar o‘qituvchi xohlasa, juda qiziqarli, ta’sirchan va sinfdagi barcha o‘quvchiga tushunarli, ya’ni o‘zlashtirish uchun oson va qulay tarzda talqin etishi mumkin.

5. O‘zingizni qadrlang

Bugun o‘qituvchi o‘z shaxsiyatini va xavfsizligini qadrlashi muhim. Jamiyatda obro‘li ustozlarga obro‘li shogirdlarni yetishtira oladilar. Ustozning kayfiyati, muomalasi, yurish-turishi, o‘quvchilarining bilim olishga ishtiyoqlarini qo‘llab-quvvatlab turishi, rag‘batlantirishning turli usullaridan foydalanish sirlarini egallaganligi ko‘p hollarda dars sifati va samarasiga bevosita ta’sir qiluvchi omil sanaladi.

Darsda o'qituvchilar yo'l qo'yadigan 5 ta xato

1-xato: Faqat darslik bilan cheklanish

Aksariyat o'qituvchilar mavzuni faqatgina darslikda qanday berilgan bo'lsa xuddi shunday qilib gapirib beradi yoki yozdiradi. Naqadar zerikarli! Bugungi kun o'quvchisi darslikdagi materiallarga qanoat qilmaydi. Zamonaviy o'qituvchi o'quvchilar hurmatini qozonish uchun yangi bilimlar bilan qurollanib borishi, mavzuni hayotiy voqealar asosida dalillashi lozim. Darslikka bog'lanib qolmaslik va darslikdan uzoqlashmaslik kerak.

2-xato: Barchaga birdek yondoshmaslik

Ba'zi o'qituvchilar fan olimpiadasiga tayyorlayotgan o'quvchilariga nisbatan e'tiborliroq bo'lib, boshqa o'quvchilarni unutib qo'yshi bu xatodir. A'lachi odobli o'quvchilarni, boshqa o'zlashtirishi biroz sust o'quvchilardan ustun qo'yish ham yaramaydi. O'qituvchi ilm ziyyosini barchaga birdek ulashishi darkor.

3-xato: Darsni bir xil suratda olib borish

O'quvchilar ba'zan darslarda uxbab qolish holatlari ham uchrab turadi. Bunga asosiy sabab mashg'ulotlar bir xilda davom etishi. Jismoniy tarbiya darslarini yomon ko'radian o'quvchi bo'lmasa kerak. Sababi, ushbu darsda barcha harakatlarni ularning o'zlari bajarishadi. Boshqa fanlarda ham o'qituvchi yo'nalish berib qolganini o'quvchilarning o'zlariga qo'yib bergani ma'qul. O'qituvchi har doim ijodkor bo'lmosg'i kerak!

4-xato: Faqat tushuntirish

Faqat gapirib, tushuntirib maqsadga yetib bo'lmaydi. Nemis pedagogi Distervegning fikricha: «Noqobil o'qituvchi haqiqatni

shunchaki aytadi-qo'yadi, yaxshi o'qituvchi esa uni topishga o'rgatadi».

5-xato: Rivojlanishdan to'xtab qolish

Ko'pchilik ustozlarimiz yo'l qo'yadigan eng katta xatolaradan biri bu o'zini rivojlantirmaslik. Eski dars muhiti allaqchon o'z samarasini yo'qotib bo'lgan. Shunday ekan hech qachon rivojlanishdan to'xtab qolmang! Darsingizga kreativlik bilan yondoshing va samaraga erishing!

Aktiv dars muhitini hosil qilishning 5 ta usuli

1. Darslaringizga "sir" qo'shing

O'quvchilar ularni darsda nima kutayotganini bilishmasa, o'rganish judayam qiziqarli bo'ladi. Darslaringizni jumboqli va sirli savollar bilan boshlashga harakat qiling. Yoki yangi mavzuni boshlashdan avval bo'lganiningizda, o'quvchilarga darslikda bo'lмаган butkul yangi ma'lumotni bering.

2. O'quvchi hayoti bilan bog'lang

O'quvchilaringiz o'rganayotgan narsalarga real aloqani yaratishga harakat qiling. Bu ularga mavzuni nega o'rganishi kerakligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Misol uchun, "Siz pul haqida o'rganyapsiz, chunki hayotda siz qanday qilib oziq-ovqat sotib olib, to'lovingizni to'lashni bilishingiz kerak". Bunday aniqlik mavzuni muhimlilik darajasini oshiradi va o'quvchi yanada diqqatliroq bo'ladi.

3. Sinf o'yinlarini yarating

O'quvchilaringiz nechanchi sinf bo'lishingizdan qat'i nazar, o'yinlar darsni qiziqarli o'tkazishning ajoyib usuli hisoblanadi. Shu sababli, darsningizda metodik o'yinlardan ko'proq foydalaning! Bu nafaqat dars samarasini oshiradi, shuningdek o'quvchilar ushbu darsdan haqiqatdan zavqalanadilar!

4. Texnologiylardan foydalaning

Texnologiyalar darslarni qiziqarli o'tkazish uchun ajoyib usuldir. Bolalar elektronikani yaxshi ko'radilar, shuning uchun uni umumiy ta'lim strategiyangizga ularni kiritishga harakat qiling. Doskaning oldida turish va ma'ruza qilishning o'rniga, interfaol texnalogiyalardan foydalaning.

5. "Kreativlik" bilan yondoshing

Darsingiz qanchalik qizg'in ruhda o'tishi va undan maksimal darajada samara olish avvalo sizga bog'liq! Siz pedagog sifatida kreativ bo'lishingiz, har bir darsingizni qiziqarliroq va tushunarliroq o'tishini ta'minlashingiz kerak va siz bunga majbursiz! Shunday ekan o'zgarishni birinchilardan bo'lib boshlang!

Unutmang, bu borada sizga "Kreativ pedagog" kursi eng yaxshi yordamchi bo'lishi mumkin!

Lider mакtab direktoriga xos 5 xususiyat

1. Yordam bering

Maktabingizdagi o'qituvchilar o'zlarini qo'llab-quvvatlanishini his qilishlari kerak. Ular sinfga yoki maktabga oid biror muammoga duch kelsalar kerakli yordamni olishlarini bilishi lozim. Shundagina ularning harakatlari dadil va samarali bo'ladi. Boshqaruvchining umumiy tuyg'usi ishonch va qo'llab-quvvatlash ekanligini unutmang!

2. Ko'rindigan direktor bo'ling

Liderlar ko'rindigan bo'lishi kerak. Ular vaqt - vaqt bilan koridorlarda aylanishi, o'quvchilar bilan muloqot qilishlari va sport musobaqalarida o'quvchilariga muxlislik qilishi kerak. Ularning borligi shunday bo'lsinki, o'quvchilar o'zlarining kimligini bilishsin va o'z maktablari bilan faxrlanishsin!

3. Yaxshi tinglovchi bo'ling

Direktoring ko'p vaqt boshqalarni tinglash uchun sarflanadi: direktor yordamchilari, o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va

xodimlar. Shuning uchun ular har kuni faol tinglash qobiliyatlarini o'rganishlari va mashq qilishlari kerak. Shu sababli, miyyangizda son-sanoqsiz o'y-fikrlar aylanayotgan bo'lsa ham, suhbatdan bosh tortmang va javob berishdan oldin ular nima deyishayotganini tinglang!

4. Aniq tasavvurga ega bo'ling

Direktor mакtab - rahbaridir. Ular maktabda sodir bo'ladigan barcha narsalar uchun javobgardir. Sizning munosabatingiz va qarashingiz kuchli va aniq bo'lishi kerak. Siz o'z maktabingizni qanday tasavvur qilasiz? Buning uchun doimo o'z qarashlaringizni rivojlantiring, yangilang va maktabingizda o'z ta'lim falsafangizni qo'llang!

5. Boshqalarga kuch bering

Direktorlar maktabni yaxshilash bo'yicha o'qituvchilarning taklif va tavsiyalarini inobatga olishi kerak! Maktabingizdagi holatni sizdan ko'ra qo'l ostingizda ishlayotgan xodimlaringiz yaxshiroq bilishadi. Shu sababli xodimlaringizga o'z g'oyalarini taqdim etishiga vakolat bering! Va shuni unutmangki, maktabingizdagi o'qituvchilar bilimi va mahoratiga e'tiborli bo'ling! Chunki bu mакtab taraqqiyoti uchun eng muhim omil hisoblanadi!

Darsni interaktiv va qiziqarli tarzda o'tkazish uchun 5 ta layfhack

1. Samarali boshlash muvaffaqiyat kalitidir.

Darsni har doim g'ayrioddiy va qiziqarli tarzda boshlang. Aynan shu daqiqada siz nostandard usullardan "to'liq" foydalanishingiz mumkin. Masalan, uy vazifasini zerikarli so'rov o'rniga, blits-turnir, mini-test o'tkazing, musobaqa tashkil qiling. Agar mavzu yangi bo'lsa, unda siz darsni ushbu mavzu bo'yicha qiziqarli faktlar bilan boshlappingiz mumkin.

2. Darsni o'quvchilaringizning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda rejaliashtiring.

Har bir darsni rejaliashtirish uchun turli xil variantlar foydalaning! Siz nafaqat sinfda faollarni, balki darsda tez-tez "esnaydigan", ortda qolayotgan o'quvchilarni ham jalg qilishingiz kerak! Hamma uchun to'g'ri keladigan nimadir o'ylab toping va texnikadan foydalaning!

3. O'yin elementlarini qo'shing.

Har doim va har qanday sinfda ham o'yin - ajoyib variantdir. Chunki o'yinli darslar har qanday yoshdagi maktab o'quvchilarini ham birdek jalg qila oladi. Shu sababli darsga to'g'ri keluvchi o'yinlar o'rganishga harakat qiling!

4. Stereotiplarni buzing!

Darsslarni odatiy doiraga o'tkazmang: ma'ruza, so'rov va hokazo. Darsni boshqacha tuzishga harakat qiling. O'quvchilarning darsga qiziqishi yo'qligi ko'pincha ular darsning barcha bosqichlarini oldindan bilishlari bilan bog'liq. Shunday ekan, shakllarga amal qilmang.

5. O'quvchilarni yangi mavzuni tushuntirishga jalb qiling!

O'zлари izlab ma'lumot topish, tayyor tushuntirishni tinglashdan ko'ra bilimni ko'proq mustahkamlaydi. O'quvchilar ishlasin! Buni amalga oshirish uchun keyingi mavzu bo'yicha ba'zi ma'lumotlarni topish vazifasini bering. Yoki dars davomida, o'quvchilarning o'zларining hayotiy tajribasiga murojaat qiling.

Darsingizni qiziqarli tashkil etishni istaysizmi? Unda hoziroq "Kreativ Pedagog" kursiga ro'yxatdan o'tishga shoshiling!

Zamonaviy pedagog ilg'or, har tomonlama ziyrak, mehnatsevar, vijdonli kishi bo'lmog'i lozim. Aytaylik, bugungi kun pedagogi har kuni yuz berayotgan yangiliklardan xabardor bo'lmasa, kasbiga, faniga doir sara metodik materiallarni o'qib-o'rganmasa, ular xususida fikr-mulohaza yurita olmasa, o'quvchilarida namoyon

bo‘lgan qobiliyatni yuzaga chiqara olmasa, biz uni zamonaviy pedagog deya olmaymiz.

Ammo, mana bir yildan ziyod vaqt bo‘ldiki, "Kreativ pedagog" kursi bu borada ustozlarimiz uchun eng yaxshi yordamchi bo‘lib xizmat qilayapti desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu o'tgan vaqt davomida kursda o'qigan minglab ustozlarimiz dunyoning eng rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi metod va texnikalarini o'zlashtirib o'z faoliyatida samaraga erishmoqdalar.

Dastlab "Kreativ pedagog" kursi o'z zamiriga 32 xil eng zamonaviy va jahon metodlarni jamlagan bo'lsa, hozirgi kunga kelib ushbu texnikalar soni 70 taga yetkazildi. Bu orqali o'zini rivojlantirishni va kreativ pedagog bo'lishni istagan ustozlarimiz uchun ajoyib imkoniyat yaratildi desak adashmaymiz. Chunki endi siz atigi 1 oy o'qib 70 xil metodni o'zlashtirgan tengsiz mahorat sohibiga aylanishingiz mumkin!

Bundan tashqari siz aziz ustozlar uchun "Kreativ pedagog" kanalida (telegramdan "kreativ pedagog" yoki @Krepiduz deb izlatasiz) o'rnatilib borilayotgan turli xil o'yinlar, foydali ma'lumotlarni o'zlashtirish va maslahatlarga amal qilish ham o'z sohangizda yutuqlarga erishishingizda va o'zingizni rivojlantirishingizda qo'l keladi degan umiddamiz.

Bu hayotda doimo o'zini ustida ishlaganlar va o'zini rivojlantirganlar g'oliblik shohsupasidan joy oladi. Shunday ekan o'zingizni rivojlantirishdan aslo to'xtamang, aziz ustozlar!

**Zamonaviy pedagog ilg'or, har tomonlama ziyrak,
mehnatsevar, vijdonli kishi bo'lmosh'i lozim. Aytaylik,
bugungi kun pedagogi har kuni yuz berayotgan
yangiliklardan xabardor bo'lmasa, kasbiga, faniga doir
sara metodik materiallarni o'qib-o'rghanmasa, ular xususida
fikr-mulohaza yurita olmasa, o'quvchilarida namoyon bo'lgan
qobiliyatni yuzaga chiqara olmasa, biz uni zamonaviy
pedagog deya olmaymiz**

**Ammo, mana bir yildan ziyod vaqt bo'ldiki,
"Kreativ pedagog" kursi bu borada ustozlarimiz
uchun eng yaxshi yordamchi bo'lib xizmat
qilayapti desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu o'tgan
vaqt davomida kursda o'qigan minglab ustozlarimiz
dunyoning eng rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi metod
va texnikalarini o'zlashtirib o'z faoliyatida
samaraga erishmoqdalar.**

**TELEGRAMDAN
@KREPEDUZ
DEB IZLANG!**